

O'QUV AMALIYOTINI TASHKIL ETISHDA TALABALARING MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISH

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika
kafedrasi assistent o'qituvchisi
Milinorov Xusniddin Xushmatovich
husniddin2018@mail.ru*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti pedagogika
yo'nalishi 1-22-guruh talabasi
Tursunova Marjona Turg'un qizi*

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda globallashuv jarayoni tez suratlar bilan inson ongu-shuuriga kirib borayotgan bir vaqtda talabalarning o'qishga bo'lган qiziqishini oshirish, ularni jamiyatning oliy qadriyati sifatida har tomonlama kamol toptirish birinchi darajali ahamiyatga ega vazifaga aylanib bormoqda. Ularning ilmga chanqoqligini, kasbga intilish darajalarini oshirish uchun esa ularga o'quv motivatsiyasini shakllantirish bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar berish lozim.

Kalit so'zlar: o'quvchi, talaba, motiv, motivatsiya, oliy ta'lim, qiziqish, layoqat, qobiliyat, kreativlik, o'quv motivatsiya, amaliyot, mas'uliyat.

ABSTRACT

At the time when the process of globalization is entering the human consciousness with rapid images, increasing the interest of students in studying, their comprehensive development as the highest value of the society is becoming a first-class important task. In order to increase their thirst for knowledge and career aspirations, it is necessary to give them scientific-based practical recommendations on the formation of educational motivation.

Key words: pupil, student, motive, motivation, higher education, interest, ability, creativity, educational motivation, practice, responsibility.

KIRISH

Respublikamizda amalga oshirilayotgan siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va madaniy sohalardagi islohotlar ta'lim-tarbiya tizimini ham tubdan isloh etishni va yanada rivojlantirishni talab etmoqda. Shu boisdan, ta'lim tizimini zamon talablari darajasida va erishilgan tajribalar asosida rivojlantirish orqali o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan, har tomonlama yetuk va yuksak ma'naviyatlari, komil insonlar etib tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Shu boisdan ham prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'zining "Buyuk kelajagimizni mard va olujanob xalqimiz bilan birga quramiz" nomli

asarida: "Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masala hisoblanadi ,—" deya ta'kidlaydi.

Oliy ta'limga muassasasiga kirgan talaba, birinchi navbatda, yangi muhitga moslashish bilan bog'liq bo'lgan bir qator muammolarga duch keladi. Chunki oliy ta'limga muhiti mifik muktab muhitidan tubdan farq qiladi. Yangi muhit talabada bir necha qiyinchiliklar tug'dirib, o'ziga xos didaktik to'siqni yaratadi. So'nggi yillarda psixologik va ilmiy adabiyotlarda o'quv faoliyatini rag'batlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero o'quvchiga nisbatan salbiy yoki befarq munosabat uning muvaffaqiyatsizligi yoki omadsizligiga sabab bo'lishi mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, ta'limga jarayonidagi ijobiy motivlar va asosli maqsadlarni shakllantirish bo'lajak mutaxassis shaxsini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega, chunki motivlar va maqsadlar faoliyatning muhim belgilovchilari hisoblanadi.

Motiv – inson xulq-atvorining ichki barqarorligi, harakatga undovchi tushunchadir. Motivatsiya esa xulq-atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni, motivlar yig'indisi bo'lib, unga tashabbus, yo'nalganlik, tashkilotchilik, qo'llab-quvvatlash kiradi. Ta'limga jarayonida o'qish motivlari "nima uchun", "nimaga?", "qanday maqsad bilan?" kabi savollar asosida yuzaga keladi. Motivlar birinchidan, o'quv faoliyatiga undasa, ikkinchidan, maqsadga erishish uchun zarur yo'l va usullar tanlashga yordam beradi.

Motivatsiya kimnidir harakatga keltiradigan ilhom sifatida ta'riflanadi. U fikrlarimiz, his-tuyg'ularimiz va harakatlarimizni yo'naltiruvchi ichki holatdir. Shaxslar biror vazifani bajarishda juda yuqori qiziqishga ega hamda uni charchoqsiz bajarishga tayyor bo'lishlari yoki aksincha, umuman ishtiyoqsiz bo'lishlari mumkin. Ya'ni odamlarda motivatsiya bo'lsa, ular o'z orzulariga erishish uchun tinimsiz ishlashadi. Talaba va o'quvchilarning o'z qobiliyatlari, qadriyatlari va ularning ma'lum bir o'quv vaziyatiga oldingi mavjud qiziqishlarining barchasi motivatsiyaga ta'sir qiladi. Ilmiy adabiyotlarda motivatsiyaning ikki turi ajratiladi:

1. Ichki motivatsiya: Bu muayyan vaziyatga duch kelganda tug'ma yoki genetik jihatdan oldindan belgilab qo'yilgan moyillikni vujudga keltiruvchi ichki kuch yoki motivdir. Ushbu turdag'i motivatsiya insonda o'ziga ishonch va o'z kompetensiyalarini his qilishga olib kelishi mumkin. Bunday motivatsiyaga ega talaba yoki o'quvchi ichki turtki bo'lganligi sababli biror vazifani bajarishdan zavq oladi.

2. Tashqi motivatsiya: tashqi yoki atrof-muhit omili tufayli talaba harakatga keltiriladi. Rag'batlantiruvchi o'sha shaxsning xulq-atvorini maqsadga yo'naltiradi.

Karl Dvek o'zining 1986-yilda yozgan maqolasida motivatsiyani 2 ikki sinfga ajratadi: a) o'rganish maqsadlari, bunda shaxslar yangi nimanidir tushunishga yoki o'zlashtirishga hamda o'z kompetensiyalarini rivojlantirishga harakat qiladilar; b)

vazifani bajarish maqsadlari, bunda shaxslar o'z kompetensiyalari to'g'risida ijobiy fikrlar olishga harakat qilishadi yoki salbiy fikrlar olishdan qochishadi. Bir qator tadqiqotlarga ko'ra, vazifani bajarish maqsadida shaxs biror murakkab vazifani amalga oshirishsa, bu uning o'z qobiliyatini anglab yetishiga turtki bo'lishi mumkin.

Talabalarda o'quv motivatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari:

1. Shaxsiy maqsadlarga ega bo'lish: Talabalar o'z maqsadlarini aniq belgilaydilar va ta'lim jarayonida o'z maqsadlariga doir motivatsiyalarga ega bo'lishadi. Ba'zi talabalar uchun yuqori o'quv motivatsiyasi o'zi maqsad qilgan ulkan marralarga erishish uchun zarur o'quv yo'lini belgilash yoki oilasiga yordam berish uchun lozim bo'lgan kasbga ega bo'lishda muhim bosqich bo'lib xizmat qiladi. Ba'zi talabalar uchun esa motivatsiyalar o'qish orqali shaxsiy rivojlanish, katta ma'lumotga ega bo'lish, ishonchli karyeraga ega bo'lish uchun muhim hisoblanadi.
2. O'zlashtirilgan ta'lim: Talabalar o'z qiziqishlari, qobiliyatlari va o'zlashtirgan o'quv usullari bo'yicha ta'lim olishlari uchun motivatsiyalar shakllantiriladi.
3. Muammolarni hal qilish: Talabalarda ta'lim olish bo'yicha muammolar yuzaga kelganda, turli qiyinchiliklarga uchraganlarida ularga muammolarni hal etish borasida yo'riqnomalar berish va yordam berish bo'yicha motivatsiyalar shakllantiriladi.
4. Tushunchalarni qanday rivojlantirish: O'quvchilar tushunchalarni oshirib, nazariy bilimlarni amaliy bilimlarga aylantirish yoki ularni jismoniy-ma'naviy ixtiyoriy jarayonlarga tortish orqali o'quv motivatsiyasini oshirishadi.
5. Tez-tez mukammal qilish: Talabalarda o'z ustida tinimsiz ishlash, tez va mukammal tarzda amaliy natijalarga erishish borasidagi motivatsiyalar shakllantiriladi.

XULOSA

Inson umri davomida turli xil yutuqlarga erishishida, duch kelgan qiyin vaziyatlardan chiqishda, murakkab vazifalarni bajarishda turtki bo'lувчи jarayonlardan bir motivatsiyadir. Ta'lim va tarbiyaviy jarayonda o'quvchi va talabalarda motivatsiyani oshirishda o'qituvchi-pedagog muhim o'rinni tutadi. U o'quvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlari, intilishlari va layoqatini hisobga olgan holda ularda motivatsiyani shakllantiradi va bu orqali ta'lim jarayonining samarali bo'lishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz". Toshkent: "O'zbekiston" 2017.
2. Milinorov, X. X., and D. N. Eshmuratova. "THE ROLE OF UZBEK TRADITIONS, CEREMONIES AND CUSTOMS IN PERSONALITY DEVELOPMENT." *Web of Teachers: Inderscience Research* 2.5 (2024): 205-209.

3. Shavkat, Khaydarov, and Khuzhaniyozov Bakhrom. "ON THE IMPORTANCE OF ETHNOPEDAGOGICAL TRADITIONS IN THE UZBEK PEOPLE." *Web of Teachers: Inderscience Research* 2.5 (2024): 210-214.
4. Isakhodjayev, Kh, et al. "Cooling air in contact with natural sources of cold." *E3S Web of Conferences*. Vol. 383. EDP Sciences, 2023.
5. Лапп, Елена Александровна, Елена Викторовна Шипилова, and Акрам Рустамович Сохибов. "ПРОЕКТИРОВАНИЕ И СОПРОВОЖДЕНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ МАРШРУТОВ ДЛЯ ШКОЛЬНИКОВ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ ЗДОРОВЬЯ: РАБОЧАЯ ПРОГРАММА КУРСА." *АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ*. 2021.
6. Sokhibov, Akmal. "Economic and Political Restraints for Reducing the Drug Economy in Afghanistan." *Sicherheit und Frieden (S+ F)/Security and Peace* (2014): 193-200.
7. Rustamovich, Sohibov Akram. "Using A Modular Approach in the Credit System of Education." *Academicia Globe* 2.6 (2021): 391-394.
8. Сохибов, Акрам Рустамович. "Формирование организаторских способностей молодёжи Республики Узбекистан." *Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов* 9 (2016): 71-73.
9. Сохибов, Акрам Рустамович. "MODERN METHODOLOGICAL BASES OF HIGHER EDUKAION MANAGEMENT IN THI ERA OF DIGITISATION: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.10.10.018> Soxibov Akram Rustamovich PhD Associate Professor of the Department of Pedagogy Karshi State University." *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал* 10 (2022): 169-176.
10. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "Pedagogik faoliyat jarayonida bo 'lajak pedagoglarni raqamlı texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish." *Ta'limning zamонавиyl transformatsiyasi* 7.4 (2024): 305-312.
11. Xusniddin, Milinorov, and Mavlanova Malika. "Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorlash jarayonida kommunikativ kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasi." *Ta'limning zamонавиyl transformatsiyasi* 7.4 (2024): 296-304.
12. Милиноров, Хусниддин Хушматович, and П. М. Жалолова. "ПРОЦЕСС ОРГАНИЗАЦИИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ." *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*. Vol. 3. No. 5. 2024.
13. Jalolova, P. M., and Yo D. Odilov. "Methods of atomic physics classes organization based on e-learning technologies." *SCIENCE AND WORLD* (2013): 20.

- 14.Jalolova, P. "USE OF ICT TOOLS TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF TEACHING PHYSICS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS." Science and innovation 2.B5 (2023): 393-401.
- 15.Jalolova, Pokiza, and Yorkin Odilov. "CALCULATION AND MODELING ENERGY LEVELS IN THE ATOM ON THE BASIS OF INFORMATION TECHNOLOGY." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 7.12 (2019).
- 16.Jalolova, Pokiza. "Theoretical-methodological aspects of quantum physics section in the credit module system." Solid State Technology 63.6 (2020): 152-158.
- 17.Хайдаров, Шавкат. "Роль этнопедагогики в узбекском народном традиции." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 7.4 (2024): 286-291.
- 18.Khaidarov, Sh. "MOTIVATION OF PEDAGOGICAL BACHELORATE GRADUATES FOR PROFESSIONAL TEACHING ACTIVITIES." Science and innovation 2.B12 (2023): 892-895.
- 19.Khaydarov Shavkat Khuzhaniyozov Bakhrom. "On The Importance Of Ethnopedagogical Traditions In The Uzbek People" 2. 2024/5:c 210-214
- 20.Хайдаров, Шавкат. "Роль этнопедагогики в узбекском народном традиции." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 7.4 (2024): 286-291.
- 21.Ochilova, N., and Bahrom Xo'janiyozov. "TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O'RNI." Results of National Scientific Research International Journal 1.7 (2022): 339-343.
- 22.HUJANIYOZEV, B. "ORGANIZATION OF THE FORMATION OF HISTORICAL THINKING OF SCHOOLCHILDREN IN AN EDUCATIONAL ORGANIZATION." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 7.4 (2024): 292-295.
- 23.Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "PEDAGOGIKANING INSON VA UNING SHAXSINI SHAKLLANTIRADIGAN ORNI." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 8.1 (2024): 145-151.
- 24.Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "BOSHLANG 'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG 'OR TAJRIBALARDAN FOYDALANISH." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 8.1 (2024): 158-162.
- 25.Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "TALABALARDA MUAMMOLI TA'LIM JARAYONINI RIVOJLAHTIRISH TEXNOLOGIYASI." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 8.1 (2024): 163-170.